



TARJIMON KOMPETENSIYASI VA PROFESSIONAL TARJIMAGA O`RGATISH MASALALARI

Yaqubov Anvar Shavkat o`g`li

Is an English Trainee-teacher, Samarkand Institute
of Economics and Service

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7583198>

ARTICLE INFO

Received: 18th January 2023

Accepted: 29th January 2023

Online: 30th January 2023

KEY WORDS

*Kompetensiya, muloqot, omil,
qobiliyat, intellekt, maxorat,
sistema, diskurs, strategiya.*

ABSTRACT

*Mazkur maqola zamonaviy tarjimashunoslikda uim o`rin
tutdigan tarjima didaktikasi masalalariga bag`ishlangan
bo`lib, unda tarjimlik kompetensiyasini shakllantirish
tamomoyillari yoritilgan, shu bilan bir qatorda malakali
tarjimonlarni tayyorlash jixatlariga xam ahamiyat
berilmoqda.*

“Biz hayotda o`zini to`la oqlagan “Islohot-islohot uchun emas, avvalo inson uchun” degan tamoyildan kelib chiqqan holda, ijtimoiy ssohadagi islohotlarni, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirish yo`lini davom ettiramiz. Ya`ni taraqqiyotniung “o`zbek modeli” tarkibidagi mashhur besh tamoyildan biri bo`lgan kuchli ijtimoiy siyosat yuritish prinsipiga qat`iy amal qilamiz”, - prezidentimizning ushbu fikrlaridan kelib chiqqan holda hamda mustaqil davlatimizning xalqaro aloqalari jadal sur`etlarda rivojlanishini hisobga olib professional darajadagi tarjimonlarni tayyorlash dolzarb masalalardan biridir.

Bu xususda shuni ta`kidlab o`tish lozimki O`zbekistonda oliy ta`limga ko`rsatilayotgan katta e`tibor 2017-yil 20-apreldagi O`zbekiston respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2909 sonli “Oliy ta`lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to`g`risida”gi qarori oliy ta`lim tizimining moddiy texnik bazasini mustahkamlab uni zamonaviy talablarga javob beradigan sharoitlar yaratilishi yuqori darajadagi malakali tarjimonlar tayyorlash uchun qulay zamindir.

Yurtimizda oliy ta`lim tizimida o`tkazilayotgan tub islohotlar ta`lim berishga oid metodikalarga yangicha qarashni talab etmoqda, xususan tarjimoni o`rgatish metodikasida ham. Bu sohadagi ilk qadamlarimizdan hisoblangan ushbu uslubiy qo`llanmamiz ham “Tarjimaga o`rgatish metodikasi” faniga o`z hissasini qo`shadi.

Tarjima ko`p asrlik boy tarixga ega bo`lishiga qaramay, uning o`rganilishi turli xalqlarning madaniyati, adabiyoti va til sistemasini rivojlanishining muhim jihatlari oydinlik kiritadi. Zamonaviy tarjimashunoslik fan sifatida 20 asrning ikkinchi yarmida mustaqil ilm fan sifatida shakllandi. Bu davrda tarjimonlik faoliyati xususiyatlarida ham, tarjima va tarjimonlarga qo`yiladigan talablarda ham sezilarli sifatii va miqdoriy o`zgarishlar sezildi. Ikkinchi Jahon urushi tamomlangandan so`ng informatsion portlash ro`y berdi – ya`ni insonlar va xalqlar o`rtasidagi ma`lumot ayirboshlash yuqoriladi – bu jarayon o`z navbatida “tarjimaviy portlashga” olib kelish bilan birga butun dunyo bo`ylab tarjimonlik faoliyati masshtabi yuqori darajaga ko`tarildi. Urushdan keyingi yillarda hayotning barcha jabhalarida xalqaro aloqalar



ko'lamini kengaytirdi va malakali tarjimonlarga ehtiyoj paydo bo'la boshladi, bu esa o'z navbatida tarjimonlik faoliyatining nazariy jihatdan tadqiq qilinishiga sabab bo'ldi. Tarjimonning yangi turlari shakllandi: sinxrontarjima, kinofilmlar tarjimasi, radio eshittirishlar, teledasturlar tarjimasi.

Ko'p sonli kitoblarning tarjima qilinishidan tashqari, og'zaki va yozma shaklda turli tashkilotlar va korxonalarining faoliyati doirasida ko'plab xujjatlar tarjimasi amalga oshirila boshladi. Tarjimonlik faoliyati bilan nafaqat professional tarjimonlar, balki chet tilini biluvchi boshqa soha vakillari ham, injinerlar, kutubxonachilar, diplomatlar, referentlar, o'qituvchilar, axborot markazlarining xodimlari kabilar ham shug'ullana boshladilar.

Ko'p sonli tarjimonlar guruhiga ehtiyoj paydo bo'la boshladi. Tarjimonlarni yakka tayyorlash metodlari samarasiz hisoblandi, ya'ni bitta mohir tarjimon o'z atrofiga bir necha shogirdlar olib tayyorlash o'z samarasini bermaganligi sababli turli davlatlarda til ta'lim muassasalarida, fakultetlarda, universitetlar bo'limlarida tarjimonlik kurslari, ya'ni tarjima maktablari ochildi. Malakali tarjimonlarni ko'plab tayyorlash dasturi kengayib bordi va o'z navbatida tilshunoslardan, tarjimashunos olimlardan tarjima fenomenini har tomonlama o'rganishni talab etdi.

Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida tilshunoslik o'z tadqiqot chegaralarini kengaytirdi. Avval faqatgina til sistemasi tizimi va rivojlanishiga e'tibor qaratgan bo'lsa, keyinchalik til fikr quroli va nutqiy kommunikatsiya vositasi sifatida o'rganila boshladi. Tilshunoslarning e'tibori markazida til birliklari va nutqiy asarlarning ma'noviy jihatlari bo'ldi, til va idrokning, real voqelikning, jamiyatning, madaniyatning munosabatlari va belgi tizimlari bilan bog'liqligi tadqiq qilindi.

Yangi tilshunoslik bilan bog'liq bo'lgan fanlar va tadqiqot jabhalari paydo bo'ldi, bular qatoriga biz kognitiv lingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, matn lingvistikasi, nutqiy munosabatlar nazariyasi va boshqalarni ta'kidlashimiz mumkin. Tilshunoslik makro tilshunoslikka aylandi, ya'ni, jamiyatdagi til mavjudligining xususiyatlari, natijalari, yo'llari, serqirra shakllarini o'rganuvchi lingvistik fanlar kompleksiga aylandi. Faqatgina shu darajaga ega bo'lgan tilshunoslik zamonaviy tarjima faoliyatini nazariy jihatdan idrok qilish kabi tadqiqot bilan shug'ullanishi mumkin, ya'ni hozirgi kunga kelib tarjimonlik faoliyati kasb etayotgan keng qamrovli masshtablari, tarjimalarga bo'lgan talablar darajasi va ko'psonli malakali tarjimonlar tayyorlash kabi masalalarni tadqiq qilish katta tajriba va malaka talab qiladi.

Bu qadar keng qamrovdagi professional tarjimonlarni tayyorlash zamonaviy tarjimashunoslikda maxsus metodika asoslarini ishlab chiqish zaruriyatini tug'dirdi. Tarjimaga o'rgatish metodlari va tashkil qilinishi qator boshlang'ich qoida va qarashlar orqali tahlil qilinadi:

1. Tarjima murakkab va serqirra aqliy faoliyat turi hisoblanib, turli maqsadlarni ko'zlashi, turli sharoitlarda, turli yo'llar va turli omillar ta'siri ostida amalga oshirilishi mumkin.
2. Har qanday faoliyat turi kabi tarjima ham, tarjimaga o'rgatish jarayonida shakllantirilgan, ma'lum bilimlar, qobiliyatlar (ma'lum harakatlarni ongli ravishda amalga oshirish) va ko'nikmalarni (ma'lum harakatlarni avtomatlashgan yoki yarim avtomatlashgan tarzda amalga oshirish) talab qiladi.



3. Tarjimonlik faoliyati tarjimon tomonidan ongli ravishda (asoslangan xulosalar va tahlil natijasida) yoki intuitiv amalga oshirilishi mumkin.

4. Tarjimon kompetensiyasi tarjimonning barcha til bilimlarini namoyon qilishi orqali ko'rinadi. Kompetensiya tarjimonda har tomonlama kognitiv va lingvistik bilimlar, qamrovli umummadaniy eruditsiya va kerakli psixologik sifatlar orqali namoyon bo'ladi.

5. Tarjimaga o'rgatish vazifasi tarjimonga qandaydir normalar, qoidalar yoki "retseptorlar"ni turli vaziyatlarda avtomatlashgan holda qo'llashga o'rgatishdan iborat bo'lmay, balki konkret sharoitda, turli matnlarga nisbatan, turli maqsadlar uchun tarjima metodlari va yo'llarini to'g'ri tanlay bilish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

Yuqorida ko'rsatilgan holatlar tarjimaga o'rgatish metodikasining mazmunini o'zida aks ettiradi.

Xo'sh, hozirgi kun amaliy va nazariy tarjimashunosligining dolzarb masalalari nimalardan iborat? Bizning nazarimizda quyidagilardir:

- maqsadli tarjimonlar tayyorlash masalasi;
- tarjimonlar umumiy amaliy bilim olishlari bilan birga, maxsus yo'nalishlar, konkret fan sohalari bo'yicha tayyorgarlikdan o'tsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi;
- buning uchun kompleks o'quv dasturlari yaratilishi lozim bo'ladi;
- dasturning barcha qismlari uzviy bog'liq bo'lishi hamda ko'zlangan maqsadni bajarishga qaratilmog'i zarur.

Tarjimonning kasbiy kompetensiyasi, uning tarkibiy tuzilmasi, kommunikativ o'ziga xosligini tahlil qilishdan oldin shuni ta'kidlab o'tish lozimki, tarjimonlik kompetensiyasiga ta'sir qiluvchi omillar nafaqat uning bilim darajasidan aniqlanadi balki uning shaxsiy fazilatlarini, ijtimoiy muloqot doirasi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. So'nggi vaqtlarda kompetensiya va kompetentlik termini qator ta'limga oid hujjatlarda qo'llanilib kelinmoqda. Ingliz, fransuz va nemis tilidagi chet el nashrlarida ushbu atama ko'p ma'noli atama- «competence» - ya'ni 5 ma'noga ega bo'lgan atama sifatida qo'llaniladi:

- qobiliyat;
- mahorat;
- harakat natijasining samaraliligi;
- layoqat;
- harakatni bajarishga ishtiyoq.

Kompetentlik atamasining eng tarqalgan izohi bu – bilimlar, qobiliyatlar, layoqatlar, intellektual va shaxsiy tafakkur, ma'lum darajadagi murakkablikni tashkil qiluvchi masalani hal qilish uchun zarur bo'lgan jamlanmasidir.

Rus olimlarining tadqiqot ishlarini tahlil qilish jarayonida kompetensiya va kompetentlik kabi ikki atamaga duch kelamiz. Ushbu ikki atama ba'zi hollarda sinonim sifatida, ba'zi hollarda kompetentlik atama sifatida, kompetensiya atamasi esa ingliz tilidan noto'g'ri tarjima qilingan sifatida talqin qilinadi.

Psixologiya, psixodidaktika va metodikada til kompetensiyasiga ma'lum qobiliyatlar majmui sifatida izoh berilib, ushbu qobiliyatlar lisoniy jamiyat a'zosiga muloqotga kirishish uchun va tilni egallash uchun zaruriy ko'nikmadir. Ta'kidlab o'tish joizki bu kabi vaziyatlarda ham kompetensiya va kompetentlik atamasi sinonimlar sifatida ishlatiladi. M.A.Xolodnaya



«Intellectual kompetentlik» atamasini kiritadi, va ushbu atama individual bilimlar va o`ziga xos xususiyat shaklini tashkillashtiruvchi layoqat sifatida izohlanadi [3, 78].

Kommunikativ kompetensiyaning murakkabligi va serqirraligi uning tarkibidagi komponent tushunchasi izohida ham ko`rinadi. Ya.van Ek global kommunikativ kompetensiyaning quyidagi kompetensiya-komponentlarini ajratib ko`rsatadi:

Lisoniy kompetensiya – til normalariga muvofiq ravishda fikrni bildirishga tayyorgarlik/qobiliyat, shu bilan bir qatorda ona tilini va chet tilini egallashda o`zlashtiriladigan tushunish maqsadida so`zning, gapning, matnning elementar darajadagi tahlili ko`nikmasiga ega bo`lishdir.

Sotsiolingvistik - muloqotning ma`lum bir vaziyatiga mos nutqiy harakatlarni tushunish va bajarishga tayyorgarlik/qobiliyat, ya`ni muloqotning ijtimoiy kontekstini idrok etish va inobatga olish (muloqotning qayerda, kim bilan, qanday maqsad bilan o`tishiga qarab lisoniy shakllarning anglangan holda tanlab olinishi, qo`llanilishi va tushunilishi).

Diskursiv kompetensiya - kommunikativ kontekstga muvofiq ravishda bayon etilayotgan fikr mazmunini qurish va idrok etish.

Strategik kompetensiya – notanish til kodini yetarki darajada bilmaslik jarayonida verbal va noverbal kommunikativ strategiyalarni qo`llashga tayyorgarlik/qobiliyat.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya – chet tili egalari o`rtasida qabul qilingan muloqot normalari haqidagi bilimlarni qo`llash, ijtimoiy madaniy kontekstga moslashish va xabardorlik tayyorgarlik/qobiliyati.

Ijtimoiy-psixologik kompetensiya – muloqotning real vaziyatlarida ijtimoiy munosabatlar qurish layoqati, o`zga jamiyat a`zolari bilan o`zaro nutqiy munosabatga kirishish tayyorgarlik/qobiliyati.

Yuqorida keltirilgan izohlardan ko`rinib turibiki, alohida olingan kompetensiya muloqot ishtirokchisining ma`lum bir bilim, nutq va o`zini tutish ko`nikmalari va layoqati, shu bilan bir qatorda shaxsning tub intellektual sifatleri shuningdek integrallashgan imkoniyatlarini ifoda etadi. N.I.Gezning fikricha kommunikativ kompetensiyaning bu tarzda tushunilishi til vositalarini muloqot vazifalari va shartlarini ijtimoiy xatti harakatlar normalari va fikr bayonining kommunikativ maqbulligi bilan o`zaro nisbati tushuniladi [3, 56].

Professional darajada ahamiyatga ega bo`lgan kompetensiyalarning shakllantirilganligi professional fikr yuritish va mutaxassis oldiga qo`ygan maqsadga erishish uchun zarur va shartdir. A.K.Markova ham professional kompetentlik borasida quyidagi fikrlarni bayon etgan. Tadqiqotchining fikricha mutaxassisning professional kompetentligi o`z ichiga maxsus, ijtimoiy, individual, shaxsiy aspektlarni olib quyidagi sifatlar bilan xarakterlanadi [3, 24]:

- professional fikrlash, professional intuitsiya, professional vazifalarni mustaqil hal etish;
- turg`un professional motivatsiya;
- o`ziga ishonch, o`ziga yuqori baho berish;
- kasbni o`ziga va o`zini kasbga moslashtirish, universallik;
- professional qobiliyatlarni rivojlantirish;
- professional malaka oshirish;
- professional o`shishning shaxsiy strategiyasini ishlab chiqish.

Tarjima jarayonini professional faoliyat sifatida tushunish, tillarni professional darajada bilish uchun uning murakkab funksional tizimini va professional ahamiyatli kompetensiyalarni



aniqlash tarjimonning effektiv professional tayyorgarligi strategiyasini aniqlashga yordam beradi va bu orqali professional darajadagi lisoniy tayyorgarlikka erishiladi. Bo'lajak professional tarjimon o'z kasbiga kirishishdan oldin, o'zining tayanch lingvistik ta'lim maqsadini – professional kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishi shart.

Yuqoridagilarning barchasi maxsus tarjimonlik tayyorgarlik bosqichida yuqori darajadagi professional kompetensiyaga erishishga yordam beradi.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston. - 2017.-489b.
2. "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ2909, 2017 20-aprel
3. Базылёв В. Н. Дидактика перевода.- Москва: Флинта.- 2012.-128с.
4. Гарбовский Н.К. Обучение переводу в Канаде. - М.: МГУ, 2004. - С. 159-161.
5. Зимняя И.А., Ермолович В.И. Психология перевода. - М.: МГПИИЯ им. М. Тореза, 1981.
6. Турдиева Н. Таржима жараёнини ўрганишда таржима моделларининг яратилиши таржимашуносликнинг тадқиқот методи сифатида // Хорижий филология. № 1, 2018. – Б. 33-38